

## O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA XALQ DONISHMANDLIGI VA ETNIK OLAM MANZARASI

**Yuldasheva Orasta Ravshanbekovna,**  
O‘zR FA Terminologiya va leksikografiya  
bo‘limi kichik ilmiy xodimi  
E-mail: yuldashevaorasta@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallari asosida o‘zbek xalqining o‘ziga xos etnik olam manzarasi, milliy mentaliteti hamda asriy donishmandligi etnolingvistik va lingvomadaniy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Lug‘at tarkibidagi moddiy madaniyat elementlari, milliy konseptlar va frazeologizmlarning xalq dunyoqarashini aks ettirishdagi o‘rni chuqur yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** etnolingvistika, izohli lug‘at, etnik olam manzarasi, milliy mentalitet, lingvomadaniyat, milliy qadriyatlar.

**Аннотация.** В статье на основе материалов пятитомного «Толкового словаря узбекского языка» всесторонне анализируются специфическая этническая картина мира, национальный менталитет и вековая мудрость узбекского народа в этнолингвистическом и лингвокультурологическом аспектах. Глубоко освещается роль элементов материальной культуры, национальных концептов и фразеологизмов, содержащихся в словаре, в отражении народного мировоззрения.

**Ключевые слова:** этнолингвистика, толковый словарь, этническая картина мира, национальный менталитет, лингвокультурология, национальные ценности.

**Abstract.** Based on the materials of the five-volume "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language," this article comprehensively analyzes the specific ethnic picture of the world, national mentality, and centuries-old wisdom of the Uzbek people from ethnolinguistic and linguacultural perspectives. It thoroughly highlights the role of material culture elements, national concepts, and idioms contained in the dictionary in reflecting the folk worldview.

**Keywords:** ethnolinguistics, explanatory dictionary, ethnic picture of the world, national mentality, linguacultural studies, national values.

**Kirish.** Har bir millat o‘zi yashab turgan borliqni, ijtimoiy hayotni va tevarak-atrofni o‘z madaniyati, urf-odatlarini hamda diniy-falsafiy qarashlari orqali ko‘radi, idrok etadi va tilda muhrlaydi. Zamonaviy tilshunoslikning rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan *etnolingvistika* aynan mana shu hodisani – til va madaniyatning o‘zaro aloqasini, xalqning dunyoqarashi uning lisoniy birliklarida qanday aks etishini o‘rganadi. Til faqatgina axborot uzatish, o‘zaro muloqot qilish vositasi emas. U millatning madaniy kodi, uning tarixiy xotirasi, psixologiyasi va asrlar davomida shakllangan tafakkur tarzi muhrlangan jonli xazinadir.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek xalqining milliy o‘zligi, dunyoqarashi va donishmandligini o‘zida jamlagan eng ulkan va benazir manba shubhasiz, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dir. Professorlar A.Madvaliyev va D.Xudayberganova tahriri ostida nashr etilgan olti jildli ushbu lug‘at faqatgina 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarining ma‘nolari to‘plami emas. U o‘zbek etnosining moddiy va ma‘naviy hayotini, falsafasini, ruhiyatini va turmush tarzini ko‘rsatib beruvchi lingvomadaniy qomusdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Izohli lug‘atda so‘zlarning ma‘no qirralarini, ularning nutqdagi haqiqiy jozibasi va semantik ko‘lamini ochib berish uchun xalq maqollari va badiiy asarlardan olingan illyustrativ misollardan foydalanilgan. Lug‘atda muayyan konseptual so‘zlarga berilgan izohlar va ularga ilova qilingan maqollar orqali millatning hayotiy falsafasini, uning tabiat va jamiyat qonuniyatlariga bo‘lgan munosabatini o‘rganish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining eng fundamental va yetakchi milliy-madaniy qadriyatlaridan biri bo‘lib, u jamiyat ijtimoiy ongida yuksak ma‘naviy fazilat sifatida ulug‘lanadi. Xalqning asriy mehmondorchilik an‘analari, uning mehmonga nisbatan yuksak hurmati va qabul qilish odoblari og‘zaki ijod namunalari, xususan, maqollar tizimida o‘zining yorqin lingvomadaniy ifodasini topgan. Paremiologik birliklarda nafaqat mehmondo‘stlikning ijtimoiy-axloqiy mohiyati ochib beriladi, balki mezbon va mehmonning xulq-atvor me‘yorlari, muloqot hamda qabul qilish qoidalari ham shakllantiriladi.

Leksik sathda olib qaralganda, “mehmon” asosi negizida shakllangan “mehmondo‘stlik” tushunchasi o‘zbek millatining mental xususiyatlari va milliy ruhini o‘zida yaqqol aks ettiruvchi o‘ziga xos lingvokulturema hisoblanadi. Tildagi bunday milliy-madaniy konseptlarning tahlili xalq dunyoqarashini o‘rganishda muhim lingvistik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, professor N. Mahmudov ta’kidlaganidek, *“tilsiz milliy ruh degan bemisl teran va ulug‘vor tushunchaning mohiyati tamoman muallaqlashadi”* [Mahmudov, 2025]. Binobarin, milliy ruh, milliy ong, ma‘naviyat va madaniyat kabi fundamental tushunchalarning saqlanishi hamda avloddan-avlodga o‘tishida ona tili bosh hakam va eng asosiy ma‘naviy tirtak vazifasini o‘taydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “mehmondo‘stlik” leksemasiga quyidagicha semantik tavsif berilgan: *“1 Mehmondo‘st ekanlik. Azaldan o‘zbek xalqi o‘zining mehmondo‘stligi bilan mashhur. Gazetadan. 2 Mehmondo‘stga xos xislat, xatti-harakat, mehmon kutishni o‘rniga qo‘yish. Xalqimizdagi mehr-oqibatlilik, bolajonlik, mehmondo‘stlik kabi milliy odatlar umuminsoniy mazmun kasb etgan («O‘TA»)”* [O‘TIL, 2022]. Keltirilgan lug‘at maqolasidan ko‘rinadiki, ushbu tushuncha shunchaki kundalik xatti-harakat emas, balki umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan milliy mental xususiyat sifatida izohlanadi.

O‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik o‘ziga xos etnomadaniy va ijtimoiy-falsafiy poydevorga ega bo‘lib, milliy dunyoqarashning eng ustuvor belgilari sirasiga kiradi. Aynan shu sababli xalq paremiologik tizimida mehmonga bo‘lgan munosabat, uni e‘zozlash va hurmat qilish tamoyillari qat’iy qonun-qoida xarakteriga ega. Xususan, “Mehmon otangday ulug‘” yoki “Mehmon – atoyi xudo” kabi o‘zbek xalq maqollari orqali mehmonga nisbatan ijtimoiy mavqening eng yuqori darajasi belgilanishi hamda mehmondo‘stlik g‘oyasining muqaddaslashtirilishi kuzatiladi. Binobarin, o‘zbek xalqining obrazli tafakkuri, turmush tarzi va milliy qadriyatlari paremiyalarda muhrlangan

lingvomadaniy kodlar tizimida mukammal aks etadi. D.Xudayberganova va Z.Muqimovalar ta'kidlashganidek, o'zbek paremiologik fondida mavzular o'xshash bo'lsa-da, ularni ifodalovchi obrazlar o'zining takrorlanmas tabiati bilan ajralib turadi. Aynan ana shu o'ziga xos metaforik va mental tasvirlar maqollardagi milliy-madaniy bo'yoqdorlikni ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi [D.Xudayberganova., Z.Muqimova, 2021].

O'zbek xalqi etnik olam manzarasining yana bir fundamental, tizimlashtiruvchi markaziy konseptlaridan biri – “mehr-oqibat” tushunchasidir. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ushbu leksema omonimik xususiyatga ega birlik sifatida qayd etilgan bo'lib, uning birinchi lisoniy shakli xalqimiz mentalitetining tub ijtimoiy-psixologik asosi va axloqiy o'lchovini yaqqol ko'rsatib beradi. Lug'atda “Oqibat I” birligiga quyidagicha konseptual ta'rif berilgan: *“Qadrdonlik, do'stlik tuyg'usi, mehr, muhabbat va shundan kelib chiqadigan yaxshi munosabat; muruvvat”* [O'TIL, 2022]. Leksikografik materialning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida “oqibat” tushunchasi shunchaki mavhum bir his-tuyg'u yoki harakat yakunini emas, balki bevosita insonlararo munosabatlardagi samimiyat, sodiqlik va ijtimoiy bog'liqlik me'yorini anglatadi.

Ushbu lisoniy birlikning milliy mental xususiyatlarini ochishda lug'at maqolasida keltirilgan illyustrativ materiallar, xususan, badiiy matnlardan olingan iqtiboslar alohida lingvokulturoloqik qimmatga ega. Masalan, lug'atda keltirilgan *“...oramizda puldan ham kattaroq narsa – mehr-u oqibat bor edi-ku”* A.Qahhor hamda *“...sizdan kelgan oqibat shumi? Bog'ga bir bordingiz-u, badar ketdingiz...”* S.Anorboyev kabi mikromatnlar o'zbek dunyoqarashida oqibat tushunchasining moddiy manfaatlar va dunyoviy ne'matlardan ustun turuvchi eng oliy ma'naviy kategoriya ekanligini isbotlaydi. Bu yerda oqibat – odamlar o'rtasidagi rishtalarni uzmaslik, yo'qlab turish va og'ir damlarda muruvvat ko'rsatish kabi amaliy harakatlar majmuidir.

Shu bilan birga, lug'atda “Oqibat II” shaklida ajratilgan lisoniy birlik ham xalq tafakkuridagi sabab-natija aloqadorligining o'ziga xos falsafiy va hayotiy talqinini aks ettiradi. Lug'at maqolasida ushbu so'zning *“Oxirgi yakun, natija”* hamda ravish o'rnida *“Hamma narsa bo'lib o'tgandan keyin, oxiri, natijada”* kabi ma'nolari qayd etilgan [O'TIL, 2022]. Bu yerda keltirilgan badiiy va nutqiy misollar xalqimizning harbir voqea-hodisaning pinhona mantiqiy yakunini oldindan ko'ra bilish, falsafiy mushohada yuritish xususiyatini ko'rsatadi. Xususan, *“Agar Bolta muallim uni sudrab ketmaganida, oqibati nima bo'lishi noma'lum edi”* (N.Norqobilov) hamda *“Adolat arizasining oqibatini kutib yurdi”* (I.Rahim) kabi badiiy parchalar orqali o'zbek tilida har qanday xatti-harakat muayyan bir yakuniy muvozanatga yoki qonuniy natijaga olib kelishi mantiqiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, so'zning ravish ma'nosida qo'llanishini ifodalovchi *“Oqibat shu natijaga kelindi...”* (A.Qahhor) yoki Hamza ijodiga mansub *“...Aql-u hushimdan oqibat begona bo'ldim sog'inib”* kabi poetik misollar inson hayotidagi emotsional va ruhiy jarayonlarning oxir-pirovard matnini lisoniy jihatdan shakllantiradi.

**Xulosa.** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da muhrlangan lingvokulturemalar xalqning dunyoqarash modelini o‘rganishda eng ishonchli lingvistik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, ona tilimiz milliy ruh, milliy ong va madaniyat kabi ulug‘vor tushunchalarni avloddan-avlodga bezavol yetkazib beruvchi bosh hakam hamda jonli ma’naviy tirgakdir. Ushbu konseptlarning har tomonlama chuqur tadqiq etilishi o‘zbek tili leksikasining lingvomadaniy salohiyatini ochib berishda muhim ilmiy qimmatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. N.Mahmudov. Tilning umurtqasi // O‘zbek tili va adabiyoti. 2025/№4.3-8 b.
2. Худайберганова Д., Муқимова З. Лингвомаданий кодлар назарияси ва ўзбек халқ мақоллари // O‘zbek tili va adabiyoti. 2021/№4.20-23 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jidlik. 3-jild. Mas‘ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 844 bet.
4. Y.Nurova. O‘zbek xalq paremlarida kiyim va oziq-ovqat nomlarining etnolingvistik tadqiqi. Monografiya. Buxoro. 2022. – 109 bet.

